



ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF STATE POLICY ON YOUTH

Khudayberdi Akhmadaliyev

independent researcher

Andijan State Pedagogical Institute

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, state power, state policy on youth, effectiveness, efficiency, empirical analysis, questionnaires.

Received: 08.10.24

Accepted: 10.10.24

Published: 12.10.24

Abstract: A number of problems can be faced when it comes to the effectiveness of the state policy regarding youth currently being carried out in New Uzbekistan. Therefore, policy in this area is complex in terms of theory and practice. Based on this, "the problematic aspect of evaluating the effectiveness of state youth policy is to clearly define the concept of the effectiveness of state youth policy on the one hand, and on the other hand, micro (local youth policy), meso (regional youth policy) and macro (national youth policy) it is manifested in connection with the precise determination of performance indicators at the levels". This article discusses this in detail.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

Xudayberdi Axmadaliyev

mustaqil izlanuvchi

Andijon davlat pedagogika instituti

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, davlat hokimiyati, yoshlarga oid davlat siyosati, natijadorlik, samaradorlik, empirik tahlil, so'rovnomalar.

Annotatsiya: Hozirda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining natijadorligi haqida gap ketganda, bir qator muammolarga duch kelish mumkin. Boisi, ushbu sohadagi siyosat nazariya va amaliyot borasidagi murakkablikka ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, "yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholashning muammoli jihati bir tomondan yoshlarga oid davlat siyosatining

samaradorligi tushunchasini aniq ta'riflash, boshqa tomondan esa mikro (mahalliy yoshlar siyosati), mezo (hududiy yoshlar siyosati) va makro (milliy yoshlar siyosati) darajalaridagi samaradorlikni o'lchovchi ko'rsatkichlarni aniq belgilab olish bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi". Mazkur maqolada shu haqda batafsil to'xtalib o'tilgan.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЕЖИ

Худайберди Ахмадалиев

независимый исследователь

Андижанский государственный педагогический институт

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Новый Узбекистан, государственная власть, государственная политика в отношении молодежи, результативность, результативность, эмпирический анализ, анкеты.

Аннотация: Когда речь идет об эффективности государственной политики в отношении молодежи, проводимой в настоящее время в Новом Узбекистане, можно столкнуться с рядом проблем. Поэтому политика в этой области сложна с точки зрения теории и практики. Исходя из этого, «проблемным аспектом оценки эффективности государственной молодежной политики является четкое определение понятия эффективности государственной молодежной политики, с одной стороны, и, с другой стороны, микро (местная молодежная политика), мезо (региональная молодежная политика), молодежная политика) и макро (национальная молодежная политика) она проявляется в связи с четким определением показателей эффективности на уровнях». В этой статье это обсуждается подробно.

Aslini olib qaraganda, yoshlarga oid davlat siyosati natijadorligini aniqlashda sohaning maqsadlari muhim element sanaladi. Ushbu tushunchasini ta'riflashda undagi natija va imkoniyat kabi jihatlarni rad qiluvchi bir qancha qarashlar ham yo'q emas. Shuningdek, Yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini o'lchashda uning natijadorligiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. "Yoshlarga oid davlat siyosatiga nisbatan qo'llanilganda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimini (ko'pincha maqsadli dasturlar xarakteriga ega) tadbiriq qilish jarayonida ular yoshlarga tegishli qanday o'zgarishlarni olib kelganligini belgilovchi ko'rsatkich sifatida tushuniladi".

Shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, "yoshlarga oid davlat siyosatining natijadorligi loyihalash bosqichida mazkur loyihaning qanchalik real ekanligi bilan uzviy aloqador bo'ladi.

Ayni o‘rinda ishlab chiqilayotgan dasturlar yo‘nalishlari nazarda tutilmoqda. Loyihaning reallik darajasi uning dastur amalga oshirilishi nazarda tutiladigan ichki va tashqi sharoitga mos kelishi bilan belgilanadi”.

Ushbu o‘rganish orqali yoshlarga oid davlat siyosatining natijadorligi o‘ziga xos tushuncha sifatida qaraladi hamda mamlakatdagi mavjud tizim va sohalarda amalga oshiriluvchi yoshlarga oid davlat siyosatiga baho beruvchi modelni shakllantirish maqsadga muvofiq hisblanadi.

Yoshlar siyosatining samaradorligida natijadorlik asosiy omildir. “Yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligi o‘z navbatida konkret natijalar va sarflangan resurslar o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatuvchi, shuningdek, natijalar bilan yoshlar siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish bosqichlaridagi urinishlarni buzish oqibatida yuzaga keladigan muammoli jihatlar o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rnatuvchi, uni amalga oshirish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar bilan o‘zaro ta’sirga ega natijadorlik ko‘rsatkichlarining majmuasidir”.

Ushbu o‘rinda, asosiy yo‘nalishlar yoshlardagi mavjud muammolarni o‘ziga birlashtirib olgan subyektlarning boshqaruv tizimida imkoniyatlarining borligi va yoshlarga oid davlat siyosatida yoshlarning faol ishtirok etishi kabi muhim omillarga ega bo‘lsagina, yoshlarga oid davlat siyosatini natijador deb hisoblash bo‘ladi.

Qutblashgan yondashuv nazariyasiga asosan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning har xil usullari bor ekanligini bir chetga surgan holda, uni natijador va natijasiz guruhlariga bo‘lib olsa bo‘ladi. Rejalisi va kutilmaganidan hamda ijobiy natijalar salbiy natijalardan ortiqroq bo‘lgandagina, yoshlarga oid davlat siyosatini natijador deb hisoblash lozim. Shuningdek, “samaradorlik tamoyillari muntazam ravishda axloqiy me‘yorlar qadriyatlarini bilan muvofiqlik kasb etib borishi lozim. Yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligi uni amalga oshirishda qo‘llanilayotgan chora-tadbirlardan yoshlarning to‘laqonli xabardorligi bilan ham belgilanadi”. Shu holda, yoshlarga oid davlat siyosatidagi natijadorlikni belgilovchi shart-sharoitlarni ham hisobga olish kerak.

Ular quyidagilar hisoblanadi:

“ - tanlab olingan yoshlar siyosati modelining ijtimoiy voqeyelikka to‘la mosligi (turli darajalarda tadbiq qilinadigan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining sifat ko‘rsatkichlarining real sharoitga mos kelishi);

- yoshlarga oid davlat siyosatini real ijtimoiy asos bilan ta‘minlash;
- ijtimoiy asoslarning barqarorligi;
- yoshlar siyosati subyektlari manfaatlarining ijtimoiy yo‘nalganligi;
- yoshlarga oid davlat siyosati tashkiliy tuzilmalarining qo‘yilgan vazifalarga muvofiqligi;
- yoshlarga oid davlat siyosati tuzilmasining manfaatdor taraflar bilan o‘zaro hamkorlik jarayonidagi faolligi;

- yoshlarga oid davlat siyosati sohalari va darajalaridagi o‘zaro hamkorlik borasidagi natijadorlik;
- yoshlar siyosatini boshqarishdagi professionalizm;
- yoshlar siyosatini amalga oshirishda mahalliy, hududiy va milliy darajalarning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish;
- yoshlarga oid davlat siyosatining mafkuraviy, nazariy-metodologik ta’minoti;
- yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholash tizimining mavjudligi;
- yoshlarga oid davlat siyosati yo‘nalishida mazkur sohada namoyon bo‘ladigan hodisalar dinamikasi va jarayonlarni kuzatib borish imkonini beruvchi asosli ko‘rsatkichlar tizimiga tayangan holda ijtimoiy monitoringning amalga oshirilib borilishi.

Samarador yoshlarga oid davlat siyosatining quyidagi belgilari mavjud:

- harakatchanlik;
- jamoatchilik nazorati uchun ochiqlik va u bilan o‘zaro hamkorlik;
- natijadorlik, pragmatiklik;
- jamoatchilik tomonidan yoshlarga oid davlat siyosatining tushunilishi va qo‘llab-quvvatlanishi;
- yuksak darajadagi ilmiy-axboriy ta’minot;
- yoshlarga oid davlat siyosati chora-tadbirlarining doimiy ogohlantiruvchi xarakteri”.

Yoshlarga oid davlat siyosati natijalarini baholashda kerakli usullar orasida uni baholash tizimi, to‘g‘rirog‘i, muayyan model doirasidagi nazariy va amaliy hamohangligi asosiy jihat hisoblanadi. O‘zbekistonda yoshlarga oid ommaviy axbort vositalaridagi chiqishlar, ilmiy maqolalar, ishlab chiqilgan konsepsiya va loyihalarni o‘ziga muajassamlashtirgan manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlarga oid davlat siyosatini baholashga qaratilgan amaldagi modelning bor yoki yo‘qligi, paydo bo‘ladigan muammoni bartaraf etishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar dasturininig qanday ahamiyat kasb etishi singari ustuvor jihatlarni tadqiq etishga imkon beradi. Mazkur jarayon vaziyatni o‘ta mushkullashtirib, davlatning yoshlarga oid siyosatidagi tizimli rivojiga g‘ov bo‘lmoqda.

Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatning yoshlarga oid davlat siyosati natijadorligini o‘lchash tizimlarini ishlab chiqishning nazariy-empirik tomonlarini inobatga olib, uning qanchalik natijadorligi to‘g‘risidagi yondashuvlardan kelib chiqqan holda, uning tarkibiy tuzilmasi e‘tiboridan o‘ziga xos jihatlarini ifodalashga harakat qildik. Ushbu holatda yoshlarga oid davlat siyosatining natijalarini olchash modeli – bu bir qancha muhim xususiyatlarni o‘ziga oluvchi shunchaki hisobotlar emas, balki dasturning avvalidan ko‘zlangan motiv va maqsadlar asosida qo‘lga kiritilgan natijalarning o‘zaro hamohangligida ko‘rinuvchi mezonlar hamdir.

Aytib o‘tilganidek, “yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligi tushunchasi ikki muhim aspektdan iborat. Bunda bir tomondan, yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligi boshqa tomondan esa, uni amalga oshirishning samaradorligi nazarda tutiladi”.

Yurtimizda Yoshlarga oid davlat siyosatiga baho berish modeli borasida so‘z borar ekan, shu o‘rinda natijadorlik deyilganda yuqorida to‘xtalib o‘tilgan ikkita jihat: 1. Yoshlarning mavjud muammolariga yechim topishga qaratilgan yoshlar siyosati; 2. Uni hayotga tdbiq etish uchun kerakli imkoniyatlar bilan mosligini aniqlash kerak. “Baholash parametrlarini tasniflash uchun zarur belgilar makonini hosil qilish imkonini beruvchi qat’iy belgilangan mezonlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholash modelini ishlab chiqishdagi zaruriy asos hisoblanadi”.

Yoshlarga oid davlat siyosati natijadorligini o‘lchashdagi ustuvor jihatlari ustida bosh qotirishdan oldin mazkur sohaga tegishli bir qancha izlanishlar rqali bizga tanish bo‘lgan quyidagi jihatlarga e’tibor qilish kerak. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholashda ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar guruhiga mansub siyosiy, ijtimoiy, etnik, tashkiliy, g‘oyaviy va mafkuraviy mezonlarni ham inobatga olish kerak bo‘ladi.

Shuningdek, “yoshlarning ijtimoiylashuv muammosi kesimida tahlil qilingan yuventologik konsepsiya doirasida taqdim etilgan jamiyat hayotining turli sohalari bilan bog‘liq mezonlar ham kam ahamiyat kasb etmaydi. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, jamiyat hayotining asosiy sohalari oykumen, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va etnomadaniy jabhalar tashkil etadi”. Ushbu mezonlar mavjud tizimidan foydalanishning o‘ziga xos imkoniyatlarini bilish jarayonida maxsus nazariy empirik tahlil rolini bajarishi kerak.

Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholash mezonlarini aniqlash muammosi orqali aholi, ayniqsa yoshlar orasida ko‘p uchraydigan manfiy tendensiyalarni kamaytirishga xizmat qiluvchi yoshlar siyosatining maqsadlari hamda yo‘nalishlariga asosan bartaraf etilishi mumkin. Shu nazariyaga assan, quyidagi sxemani o‘rtaga tashlash mumkin bo‘ladi:

“Yoshlarning real muammolar maydoni - shunga ko‘ra yoshlar siyosatining maqsad va vazifalarini shakllantirish - yo‘nalishlarni aniqlash - har bir yo‘nalish bo‘yicha baholash mezonlari tizimini ishlab chiqish”. Baholash jarayonining kategoriyalarini guruhlashtirish va shu orqali yoshlarga oid davlat siyosatining alohida yo‘nalishlaridan foydalanish mumkin.

Fikrimizcha, tanlab olingan indikatorlar yoshlar siyosatini amalga oshirishning muayyan darajasini:

I. Tegishli bo‘lishi (Respublika, hududiy, mahalliy);

II. Ko‘rsatkichlar va darajalar o‘rtasidagi aloqa vertikal (ko‘rsatkichlar va turli darajalar o‘rtasida), gorizontal (ko‘rsatkichlar va bir daraja o‘rtasida) bo‘lishi mumkin.

Oʻrtaga tashlanayotgan modelda muayyan indikatorlar tizimi asosida tanlab olingan jihatlar yoshlarga oid davlat siyosati mohiyatini koʻrsatib berishi kerak. “Shu maʼnoda ajratib olingan parametrlarni empirik tahlil qilish imkoni boʻlishi lozim. Zero, ular yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini miqdoriy va sifatiy jihatdan baholash imkonini beruvchi koʻrsatkichlar tizimini loyihalash vositasi hisoblanadi”. Yoshlarga oid davlat siyosati natijadorligini koʻrsatuvchi indikatorlar – bu yoshlarning ijtimoiy-siyosiy subyektlar bilan paydo boʻluvchi ijtimoiy munosabatlarining miqdor hamda sifat koʻrsatkichlari, - deyish mumkin.

Aytib oʻtish lozimki, tanlangan indikatorlar tizimi quyidagi talablarga mos boʻlishi shart:

“1. Koʻrsatkichlar toʻplami miqdor jihatdan cheklangan hamda belgilangan muayyan vaqt ichida doim amal qilish xususiyatiga ega boʻlishi kerak.

2. Koʻrsatkichlar yoshlar siyosati sohasidagi chuqur ilmiy oʻrganilgan hamda amaliyotda sinalgan hodisalarni aks ettirmogʻi lozim. Bir ijtimoiy iqtisodiy formasiyadan ikkinchisiga oʻtishda yangicha innovasion koʻrsatkichlarni izlab topish talab qilinadi.

3. Foydalaniladigan koʻrsatkichlar toʻplami davriy ravishda takomillashtirilib borilishi lozim”.

Yangi Oʻzbekistn sharoitida tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biri ham aynan yoshlar siyosati samaradorligini baholash modeli doirasidagi amaliy va nazariy indikatorlar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir.

“Har qanday samaradorlikni baholash modelida baholash Institutlariga nisbatan nomaʼlumlikni bartaraf qilish muammosi mavjud boʻladi:

- baholash institutlarining huquqiy taʼminoti;
- baholash institutlari faoliyatining boshqaruv tizimi;
- baholash institutlari oʻrtasida axborot almashinuvi va oʻzaro hamkorlikning joriy qilinganligi”.

Yoshlarga oid davlat siyosati natijadorligini baholash jarayonini nazariy metodologik jihatdan tadqiq etish masʼul tashkilotlarning faoliyatida ustuvor yoʻnalish sifatida qaralishi kerak. Shu jihatdan olib qaraganda, yoshlarga oid davlat siyosati natijadorligini baholash modelini ishlab chiqish jarayoni quyidagi oʻziga xos xususiyatlarni birlashtiradi:

- “ - baholash mezonlari va ularga mos baholash parametrlarining mavjudligi;
- har bir parametr boʻyicha muayyan sifat va miqdor koʻrsatkichlarini ishlab chiqish;
- yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholash boʻyicha chora- tadbirlar tizimini institusional bazasini aniqlash;
- yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholash institutlari faoliyati uchun zaruriy sharoit yaratish”.

Shuni ta'kidlash kerakki, yoshlarga oid davlat siyosati natijadorligini baholashning o'ziga xos muammoli jihati shundaki, natijalarni muhokama qilish va uni haytga tadbiiq etishning har xil omillarini yoshlar siyosati ichki tuzilmasining tahlilisiz amalga oshirib bo'lmaydi. "Yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi, natijadorligi va harakatchanligini obyektiv baholash uchun yagona ko'rsatkich va indikatorlar tizimi talab qilinadi". Hozirda ham yoshlarga oid davlat siyosati natijadorligini baholash bo'yicha yagona qarash yo'q.

Bu degani, yoshlar siyosatini amalga oshirishning har xil darajalarida faoliyat yurituvchi davlat tashkilotlarining mazkur siyosat samaradorligini baholash masalasini subyektiv tarzda tushunilishiga xizmat qilmoqda. Ba'zi hollarda, Respublika hamda hududlarda o'tkaziladigan ommaviy ko'ngilochar tadbirlar yoshlar siyosati uchun bajarilgan ishlar sifatida baholanadi. Avvalgi olib borilgan ilmiy izlanishlarda yoshlarga oid davlat siyosati uchun belgilangan maqsad va vazifalarga erishilganlik ko'rsatkichlarini o'lchashda yoshlar ma'naviy hislatlarining rivojlanishini baholashga yordamlashuvchi inson salohiyati rivojlanishi indekslariga yaqin bo'lgan yoshlarning rivojlanish indeksi ko'rsatkichlariga murojaat qilina boshlandi.

Ushbu parametrlarni hisoblash metodologiyasi YuNESKOning maxsus taklifi bo'lib, ular quyidagi 3 ta guruhni o'z ichiga oladi:

“Sog'lik indeksi;

Ta'lim indeksi;

Daromad indeksi”.

Sog'lik indeksini hisoblashda yoshlar o'rtasida ro'y bergan o'lim sabablaridan foydalanilib, mazkur sabablar turli xil kasalliklar va baxtsiz xodisalar singari ikki guruhga ajratiladi. Ikkinchi guruhga o'z joniga qasd qilish, harbiy harakat chog'ida shikastlanish, narkotik va alkogol maxsulotlari iste'mol qilish oqibatida hamda boshqa omillarga ko'ra zaharlanish va jarohatlanish tushuniladi.

Ta'lim indeksini hisoblashda yoshlar o'rtasidagi savodlilik darajasi, yoshlarni ta'limning turli bosqichlari bilan qamrab olinganligi darajasi, ular olgan ta'limning sifat darajasi kabi omillarga e'tibor qaratiladi. Yoshlar olgan ta'limning sifat darajasi ular o'rtasida o'tkazilgan davlat imtihonlari natijalari bilan belgilanadi.

Yoshlar indeksining so'nggi elementi bu daromad indeksi bo'lib, u statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra hisoblanadi. Yoshlar rivoji indeksining umumiy ko'rsatkichi uni tashkil etuvchi ko'rsatkichlar yig'indisining o'rta hisobiga ko'ra keltirib chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholash bo'yicha o'tkazilgan monitoringda hududlardan yig'ilgan ma'lumotlar va ma'lumot yig'ish jarayonining o'zi yoshlar bilan ishlashning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Mazkur jarayonda ayrim

hududlardagi yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligi bu yerlardagi yoshlar ishsizligi, ular o'rtasida narkomaniya, jinoyatchilik, residivist jinoyatchilikning kamligi bilan belgilanishini ko'rsatdi. Ba'zi hududlarda yoshlarga oid davlat siyosati deyarli amalga oshirilmaganligi, aniqrog'i, davlat hokimiyati organlari o'zlarining bu boradagi vazifalarini bajarmaganliklari kuzatilgan.

Albatta ma'naviy kamolot, vatanparvarlik, tolerantlik singari shunday ijtimoiy jarayon va qadriyatlarga tayanuvchi parametrlar mavjudki, ularni to'g'ridan-to'g'ri miqdoriy ko'rsatkichlarda aks ettirish, shu ma'noda bu boradagi natijadorlikni aniq baholash bir muncha murakkab hisoblanadi. Ularni o'lchashda qat'iy kam ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlardan imkon qadar foydalanmaslik tavsiya qilinadi. Shunga qaramay, zamonaviy bosqichda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholashga imkon beruvchi nisbatan obyektiv statistik ko'rsatkichlar ro'yxati shakllantirilishi lozim.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholashda quyidagi omillarga ham diqqat qaratish talab qilinadi: hududlar o'rtasidagi farq, qishloq va shahar o'rtasidagi farq, ayollar va erkaklar o'rtasidagi farq, biror hududda doimiy va vaqtincha yashovchi yoshlar o'rtasidagi farq va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Айзенкоп, Б.М. Молодежная политика в Российской Федерации: Поиск оптимальных решений / Б.М. Айзенкоп. - М.: Макс Пресс, 2013. - С. 21.
2. Лисовский, В.Т. Духовный мир и ценностные ориентации молодежи России.// Лисовский, В.Т. Уч. пособие. СПб., 2014. - С. 110.
3. Коврижных, Ю.В. Научное обеспечение реализации государственной молодежной политики и средства массовой информации / Ю.В. Коврижных // - Муниципальный мир. - 2010. - №6. - С. 42.
4. Ручкин, Б.А. Российская молодежь сегодня: десять основных проблем / Б.А. Ручкин, Е.А. Гришина // Молодежная политика: Информационный бюллетень. - М., 2012. - № 196-197. - С. 4.
5. Чирун С.Н. Молодежная политика в современном российском обществе. Автореф. дис. ... канд. социол. наук. - Кемерово, 2001.С - 25.
6. Родионова, В.А. Молодежь и общество: Проблемы разработки и реализации молодежной политики / В.А. Родионова, СТ. Колмогорцева, - М., 2015. - С. 35.
7. Беспаленко, П.Н. Проектирование государственной молодежной политики в практике муниципального управления: Автореф. дис.... канд. социол. наук: 22.00.08 / Павел Николаевич Беспаленко, - Белгород, 2011.- С.-12.

8. Вербицкая, Л.А. Основы концепции и программы воспитания студентов вузов России / Л.А. Вербицкая, В.Т. Лисовский // - Вестник СЗО РАО «Образование и культура Северо-Запада России». - СПб. - 2014. Вып. 5.-С. 12.
9. Павловский В.В. Ювентология: проект интегративной науки о молодежи. - М.: Академический проект, 2011.С - 304.
10. Игнатов, В.Г. Региональная молодежная политика: Проблемы и опыт становления / В.Г. Игнатов, А.Н. Нифанов, П.Н. Беспаленко. - Ростов-на-Дону. - 2009. - С. 318.
11. Суrowова, О.В. Политическая социализация молодежи в современной России / О.В. Суrowова, В.М. Долгов. - Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 2014. - С.34.
12. Луков, В.А. Будущие политики: социализация студентов, ориентированных на профессиональную политическую деятельность // В.А. Луков, Я.В. Миневич. - М.: Изд-во Нац. ин-та бизнеса, 2014. - С.26 - 32.
13. Демченко, В.И. Политическая социализация в США: история и современность / В.И. Демченко. - Ростов н/Д: Изд-во СКНЦ ВШ, 2015. - С. 64.
14. Пирожников, в.г. Политическая социализация студенческой молодежи в условиях становления новой российской государственности: Монография / В.Г. Пирожников. - Астрахань: Изд-во Астрах, гос. пед. Унта, 2010. - С.37.